ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

OILADA NIKOH MUNOSABATLARI

Azizov Sherzod

O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi Islom huquqi yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada nikoh munosabatlarining huquqiy, ijtimoiy va axloqiy jihatlari tahlil qilinadi. Nikohning ta’rifi, uning qonuniy asoslari va jamiyatdagi o‘rni haqida so‘z boradi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi va boshqa qonuniy hujjatlar asosida nikoh va oilaviy munosabatlarning tartibga solinishi, shuningdek, nikohning ijtimoiy va diniy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Nikohning asosiy maqsadlari, erkak va ayol o‘rtasidagi huquqiy tenglik, ijtimoiy himoya, farzandlarni tarbiyalash masalalari yoritilgan. Shuningdek, nikohni qonuniy ravishda bekor qilish (ajralish) va unga oid huquqiy tartiblar ham muhokama qilinadi. Maqola oilaning jamiyatdagi muhim roli, uning barqarorligi va farzandlarni tarbiyalashdagi ahamiyatini tushuntiradi. Shuningdek, oilada nikoh munosabatlarining ijtimoiy, huquqiy va axloqiy jihatlari yoritilgan. Nikoh tushunchasi, uning shakllanish bosqichlari, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlar, shuningdek, nikoh mustahkamligini ta’minlovchi omillar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda uchrayotgan nikohdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Ishda milliy qadriyatlar va urf-odatlarning nikoh munosabatlariga ta’siri ham tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: nikoh, oila, er-xotin munosabatlari, huquqiy asoslar, axloqiy me’yorlar, oilaviy qadriyatlar.

БРАЧНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СЕМЬЕ

Аннотация. В данной статье анализируются правовые, социальные и этические аспекты семейных и брачных отношений. Рассматриваются определение брака, его юридические основы и роль в обществе. В статье также рассматривается регулирование семейных отношений и брака на основе Гражданского кодекса Республики Узбекистан и других юридических документов, а также социальные и религиозные аспекты брака. Основные цели брака, правовое равенство между мужчиной и женщиной, социальная защита и вопросы воспитания детей раскрыты в статье. Кроме того, обсуждаются правовые процедуры расторжения брака (развод) и связанные с ними юридические нормы. Статья объясняет важную роль семьи в обществе, ее стабильность и значимость воспитания детей. Он также охватывает социальные, правовые и моральные аспекты брачных отношений в семье. Обсуждается понятие брака, этапы его становления, взаимные права и обязанности между парами, а также факторы, обеспечивающие стабильность брака. В ней также рассматриваются проблемы в браке, с которыми мы сталкиваемся в современном обществе, и пути их преодоления. В исследовании также анализируется влияние национальных ценностей и традиций на брачные отношения.

Ключевые слова: брак, семья, супружеские отношения, правовая основа, этические нормы, семейные ценности.

MARITAL RELATIONS IN THE FAMILY

Annotation. This article analyzes the legal, social, and ethical aspects of marriage relations within the family. It discusses the definition of marriage, its legal foundations, and its role in society. The article examines the regulation of marriage and family relations based on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan and other legal documents, as well as the social and religious aspects of marriage. The main objectives of marriage, legal equality between men and women, social protection,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

and issues related to child upbringing are highlighted. Additionally, the legal procedures for the dissolution of marriage (divorce) and related legal norms are discussed. The article explains the important role of the family in society, its stability, and the significance of child upbringing. It also covers the social, legal and moral aspects of marital relations in the family. The concept of marriage, its stages of formation, mutual rights and obligations between couples, as well as factors that ensure the stability of marriage are discussed. It also examines the problems in marriage that we encounter in modern society and ways to overcome them. The study also analyzes the influence of national values and traditions on the marital relationship.

Key words: marriage, family, couple relationship, legal basis, ethical norms, family values.

KIRISH

Oila – har bir jamiyatning tayanch ustunidir. Uning asosini tashkil etuvchi nikoh munosabatlari esa insonlar hayotining eng muhim ijtimoiy-huquqiy institutlaridan biridir. Nikoh bu – er va xotinning qonuniy asosda rasmiylashtirilgan, o‘zaro huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan birligi bo‘lib, u jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi.

Nikoh munosabatlari jamiyatning madaniyati, an’analari, diniy qarashlari va huquqiy tizimiga bevosita bog‘liq holda shakllanadi. O‘zbekistonda nikoh masalalari Oila kodeksi orqali tartibga solinadi. Unda nikoh yoshidan tortib, nikohdan o‘tish tartibi, er-xotin huquq va majburiyatlari, ajralish holatlari va farzandlar tarbiyasi kabi muhim masalalar belgilab qo‘yilgan.

Nikohda o‘zaro hurmat, ishonch, mas’uliyat va mehr-muhabbat asosiy o‘rin tutadi. Agar bu jihatlar yetarli darajada bo‘lmasa, oilaviy nizolar, tushunmovchiliklar va ajrimlar yuzaga kelishi mumkin. Bugungi kunda oilaviy ajralishlar sonining ortib borishi, ayniqsa yoshlar orasida bu mavzuga jiddiy yondashishni talab qiladi. Shu sababli, yoshlarga nikohdan oldin oilaviy hayotga tayyorgarlik, o‘zaro muomala madaniyati va mas’uliyat hissini singdirish muhim sanaladi.

Nikohni mustahkamlovchi omillar – bu o‘zaro mehr, sabr-toqat, moddiy barqarorlik, ruhiy yaqinlik hamda farzandlar tarbiyasida birgalikdagi mas’uliyatdir. Ayniqsa, oiladagi sog‘lom muhit nafaqat er-xotin, balki jamiyatning kelajagi bo‘lgan farzandlar tarbiyasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, milliy qadriyatlarimiz va an’analarimiz oilaviy munosabatlarning ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Keksalarga hurmat, yoshlarga e’tibor, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, yurtga va oilaga sadoqat singari fazilatlar nikoh mustahkamligining asosi hisoblanadi.

Oilada nikoh munosabatlari – bu ikki shaxsning huquqiy va ijtimoiy jihatdan tan olingan o‘zaro munosabatlaridir. Nikoh, asosan, erkak va ayolning qonuniy asosda birlashishini va ularning birgalikdagi turmush tarzini tashkil etadi. Oila va nikoh munosabatlarining har bir jamiyatda muhim o‘rni bor, chunki bu institut avlodlarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi va ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyatga ega.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir. Shuning uchun yurtimizda oilaga va oilaviy munosabatlarga alohida e’tibor qaratiladi. Hamda, oila va nikoh munosabatlari qonunlar va normalar bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi va nikoh va oilaga doir qonunlar oilaviy munosabatlarni va nikohning huquqiy tamoyillarini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga ko‘ra oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.[1]

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 76-modda. – Toshkent: O‘zbekiston. 2023-yil.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Nikoh arabcha so‘z bo‘lib, (نَكَحَ – يَنْكِحُ - نِكَاحًا) ya’ni “qo‘shilish”, “jamlash” degan ma’nolarni anglatadi hamda FHDYO (Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi)da ro‘yxatga olinadigan o‘zaro muhabbat, hurmatga asoslanadigan ayol va erkakning ittifoqi nikoh deb yuritiladi. Shariatda ijob va qabul (ikki tomonning roziligi) bilan hosil bo‘ladi.

“Nikoh er-xotin bir-biri bilan jinsiy aloqa qila olishlariga imkoniyat beradigan, ular uchun bola ko‘rishni halol qiladigan va ularning huquq va majburiyatlarini o‘rnatadigan shartnomadir”.[2]

Ko‘plab dinlar nikohni muqaddas va ijtimoiy mas’uliyat sifatida qaraydi. Masalan, Islom dinida nikoh – bu erkak va ayolning o‘zaro rozi bo‘lgan holda yakunlanadigan qonuniy munosabatidir. O‘zbekistondagi ko‘pchilik aholi musulmon bo‘lgani uchun, nikohda Islom dinining qoidalari, masalan, nikohni haqiqiy qilish uchun ikki shohidning ishtiroki va erkakning ayolga mahr to‘lash majburiyati muhim ahamiyatga ega. Nikohning huquqiy tomoni o‘sha ikki shaxsning bir-biriga nisbatan huquq va majburiyatlar to‘plamini anglatadi.

Nikohning asosiy maqsadi – oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va fuqarolarni yuridik jihatdan himoya qilishdir. Oila kodeksi oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat bo‘lib, unda nikohning tuzilishi, uning shartlari, er-xotin o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar, nikohni tugatish tartibi va boshqa masalalar batafsil ko‘rsatilgan. Bu orqali nikohning asosiy maqsadi – oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va fuqarolarni yuridik jihatdan himoya qilish – amaliy jihatdan amalga oshiriladi. Masalan, Konstitutsiyaning 76-moddasida “oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, u jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinishi”[3] belgilangan. Bu esa nikohning asosiy maqsadi davlat tomonidan tasdiqlanishini ko‘rsatadi.

Nikohning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib ular quyidagichadir:

- Erkak va ayol o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va tenglik. Nikohda erkak va ayolning o‘zaro huquq va majburiyatlari tengdir. Ikki tomon ham o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, hurmat va o‘zaro ishontirish asosida yashashi kerak. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi[4].
- Ixtiyoriy tanlov: Nikohga kirish ikki tomonning o‘z ixtiyoriy qarorlari bilan amalga oshiriladi. Bunda zo‘ravonlik yoki majburiyatdan foydalanish taqiqlanadi.
- Ijtimoiy himoya: Nikohda turuvchi shaxslar jamiyat tomonidan himoya qilinadi, ularning oilaviy huquqlari, manfaatlari qonun doirasida himoyalanadi[5].

Nikoh quyidagi shartlar bilan amalga oshiriladi:

- Erkak va ayolning kelishuviga asoslanadi.
- Nikoh yoshi: “Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug‘ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini

[2] Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr Al-Marg‘inoniy. Al-hidoya.
[3] O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, 76-modda. – Toshkent: O‘zbekiston. 2023-yil.
[4] O‘zbekiston Respublikasining oila kodeksi, 2-modda: Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi.
[5] O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin” . Ushbu modda orqali O‘zbekistonda nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilangan. Shu bilan birga, muayyan uzrli holatlarda nikoh yoshi ko‘pi bilan 1 yilga pasaytirilishi, ya’ni 17 yoshdan boshlab turmush qurishga ruxsat berilishi mumkin. Bu ruxsatni faqat mahalliy hokim beradi.

- Ehtiyotkorlik va izlanishlar: Nikoh tuzishdan oldin, taraflar bir-biriga nisbatan mutlaq xohish va qaror qilishga tayyor bo‘lishi kerak. Bu, ayniqsa, erkak va ayolning o‘zaro mas’uliyatlarini tushunishiga yordam beradi.

Nikohning huquqiy asosi quyidagi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- Mulkka oid huquqlar: Nikohdan keyin oila a’zolari (er va xotin) umumiy mulkka ega bo‘lishadi. Boshqa so‘z bilan aytganda, nikohda er va xotin o‘rtasidagi mulk masalalari, ularning ijtimoiy hamkorlikda faoliyat yuritishi bilan bog‘liq.
- Bolalar: Nikoh orqali tug‘ilgan bolalar ham huquqiy nuqtai nazardan ota-onaning himoyasida bo‘ladi. Ota-onalar bolalariga moddiy va ma’naviy mas’uliyatda bo‘lishlari kerak.
- Nikohdan chiqish: Nikohni qonuniy ravishda bekor qilish (ajralish) quyidagi shartlarga asoslanadi: ikki tomonning o‘zaro rozi bo‘lishi, sudga ariza berish, va zo‘ravonlik, aldamchilik kabi huquqiy asoslar mavjudligi.

Nikohga kirgan ikki tomon o‘rtasida quyidagi o‘zaro majburiyatlar yuzaga keladi:

- Erkak va ayol o‘rtasida o‘zaro hurmat, sevgi va yordam.
- Ijtimoiy mas’uliyat: Oilaning ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashishi va farzandlarga to‘g‘ri tarbiya berish majburiyati.
- Moddiy va moral yordam: Bir-biriga yordam ko‘rsatish, er-xotin, ota-ona bolalariga moddiy yordam, o‘zaro ishonch va qarorlar.

Nikohning ijtimoiy asoslari:

Nikoh ijtimoiy tomondan oilaning jamiyatdagi roli, uning iqtisodiy va ijtimoiy aloqalari, hamda avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir etadi:

Avlodni tarbiyalash: Nikoh, avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ota-ona tomonidan farzandlarga beriladigan tarbiya ularning dunyoqarashini kengaytiradi va jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi.

Ijtimoiy yordam: Nikohda bo‘lgan oilalar ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lsa, jamiyatdan ma’lum darajada yordam olishlari mumkin.

Ba’zida nikoh munosabatlari shartnoma asosida shakllanadi. Bunda er va ayol o‘rtasida o‘zaro rozilikka asoslangan kelishuvlar tuziladi, bunda quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi:

- Mulk taqsimoti.
- Farzandlarni tarbiyalash masalalari.
- Ayrim huquqiy masalalar: nikohni uzish va ajralish holatida mulk taqsimoti, aliment, va boshqa huquqlar.

Nikoh munosabatlari ijtimoiy, huquqiy va axloqiy jihatdan jamiyatni tashkil etuvchi muhim omildir. Oilaviy munosabatlar qonuniy asosda o‘zaro hurmat, sevgi va mas’uliyatni anglatadi. Nikoh orqali oilaning ijtimoiy roli va manfaatlari ta’minlanadi, farzandlarning to‘g‘ri tarbiyalanganligi va jamiyatdagi o‘rni shakllanadi.

Oilaning diniy, huquqiy, va axloqiy asoslari – oila instituti jamiyatda muhim o‘rin tutadi va uning shakllanishi, faoliyati va rivojlanishi bir qator diniy, huquqiy va axloqiy me’yorlar asosida amalga oshiriladi. Bu asoslar oilaning ijtimoiy barqarorligi, jamiyatdagi roli va farzandlarni tarbiyalashdagi ahamiyatini ta’minlashga yordam beradi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Diniy asoslar oilaning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Diniy ta’limotlar va qadriyatlar oilaning asosiy maqsadlarini, axloqiy xulq-atvorni va oila a’zolarining o‘zaro munosabatlarini belgilaydi.

Din, oilaning ichki tinchligini va barqarorligini ta’minlash uchun axloqiy qoidalar o‘rnatadi. Ota-onalarning farzandlarga to‘g‘ri tarbiya berishlari, bir-birlariga hurmat ko‘rsatishlari, o‘zaro mehr-muhabbatni saqlashlari kabi qadriyatlar muhim ahamiyatga ega.

Diniy nuqtai nazardan, oilaning asosiy vazifalaridan biri – bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashdir. Ko‘pgina dinlarda farzandlarga diniy bilimlar berish, ularga to‘g‘ri axloqni o‘rgatish va jamiyatda yaxshi inson bo‘lishni targ‘ib qilish alohida ahamiyatga ega.

Oila munosabatlari huquqiy jihatdan ham aniq belgilangan va tartibga solingan. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi va boshqa huquqiy hujjatlar oilaning huquqiy asoslarini belgilaydi. Nikoh va oilaning huquqiy tomoni quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

- Nikohning huquqiy belgilanishi: O‘zbekistonda nikohni tuzish va nikohdan ajralish, oila a’zolarining huquqlari va majburiyatlari qonun bilan belgilangan. Nikoh er-xotin o‘rtasida huquqiy munosabatlar o‘rnatadi, ularning o‘rtasidagi mol-mulk, farzandlarning tarbiyasi va ota-onaning huquqiy mas’uliyati to‘g‘risida huquqiy me’yorlarni o‘rnatadi.[6]
- Oila a’zolarining huquqlari: Har bir oila a’zosining, ayniqsa, farzandlarning huquqlari himoya qilinadi. Fuqarolik kodeksiga binoan, farzandlarning ta’lim olish huquqi, ota-onaning farzandlarga bo‘lgan majburiyatlari va boshqa huquqlari aniq belgilangan. Nikohda ham, oila a’zolarining o‘zaro huquqlari va majburiyatlari belgilanadi (masalan, er va xotin o‘rtasidagi mol-mulk masalalari, aliment va tarbiya).
- Ajralish va nikohdan chiqish: Ajralish holatida ham, huquqiy tomonlar tartibga solingan. Nikohni bekor qilish yoki ajralish jarayoni qonuniy ravishda amalga oshiriladi. Ajralish holatida, masalan, mol-mulkni taqsimlash, farzandlarning ota-onadan kim bilan qolishi va aliment masalalari muhim huquqiy tartibga solinadi.[7]

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maqolada oiladagi nikoh munosabatlarining huquqiy, ijtimoiy va axloqiy jihatlari keng tahlil qilingan. Nikoh, jamiyatda oila institutining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, erkak va ayol o‘rtasidagi huquqiy tenglik, farzandlarni tarbiyalash va ijtimoiy himoya kabi masalalar bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi va boshqa huquqiy hujjatlar nikoh va oilaviy munosabatlarning qonuniy asoslarini belgilaydi va ularni tartibga soladi. Shuningdek, maqolada nikohning ijtimoiy roli, uning barqarorligi va farzand tarbiyasidagi ahamiyati ta’kidlanadi. Nikohdan ajralish va unga oid huquqiy tartiblar ham alohida ko‘rib chiqilgan. Shuning uchun, oiladagi nikoh munosabatlari nafaqat huquqiy nuqtai nazardan, balki ijtimoiy va axloqiy jihatdan ham muhim o‘rin tutadi, ularning barqarorligi va rivojlanishi jamiyatning umumiy farovonligi uchun zarurdir. Xulosa qilib aytganda, nikoh – bu faqat rasmiy munosabat emas, balki chuqur ijtimoiy va axloqiy mas’uliyatdir. Har bir inson oilaviy baxt sari intilayotganda, o‘z huquq va burchlarini chuqur anglab, ularni vijdonan ado etishi lozim. Zero, mustahkam oila – mustahkam jamiyat poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[6] Bu haqida O’zbekiston konstitutsiyasi, Oila kodeksining bir nechta moddalariga murojaat qilish mumkin.

[7] O’zbekiston konstitutsiyasi, oila kodeksining “Nikohning tugatilishi” haqidagi 7-bobda 37-48-moddalarda bu masalaga batafsil to’xtalgan.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-5

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: O’zbekiston, 2023.
2. Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr Al- Marg‘inoniy. Al-hodoya.
3. Qodirov N. Oila va nikoh munosabatlari. – Toshkent: Huquq, 2020.
4. G‘ulomov S. va boshqalar. Oilaviy huquq. – Toshkent: Sharq, 2019.
5. Rahmonova N. Zamonaviy oilaning ijtimoiy psixologik muammolari. – Toshkent: Fan, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila instituti va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil.
7. Mahmudov Z. Nikoh va oila madaniyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
8. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma’lumotlari: Oila va nikoh sog‘lom jamiyat omili sifatida. (www.who.int)
9. Internet manbalari: www.lex.uz, www.norma.uz – Oila kodeksi va qonunchilik hujjatlari.